



UDK: 81'373.422:811.161.3(03)

**Shuhratxon IMYAMINOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti professori*  
E-mail: rumreich@gmail.com  
**Charosxon DAVLATNAZAROVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

*O'zMU professori, DSc D.Djafarova taqrizi asosida*

### THE CHARACTERISTICS OF ANTONYMS IN THE GERMAN LANGUAGE (BASED ON V. M. ZAVYALOVA'S ILLUSTRATIVE DICTIONARY "DEUTSCHE ANTONYME")

Annotation

This article analyzes the content, structure, and scientific-practical relevance of the German antonym dictionary "Deutsche Antonyme" compiled by V.M. Zavyalova. Although the dictionary does not offer a theoretical classification of antonyms based on semantic or morphological criteria, its alphabetical organization and the use of context-rich examples make it a valuable resource. Each antonym pair is illustrated with authentic usage examples, making the dictionary useful not only lexicographically but also from stylistic and psycholinguistic perspectives. The article also discusses the significance of the dictionary in linguistics and its potential in comparative language studies.

**Key words:** Antonymy, antonym, German language, lexical system, context, stylistics, translation studies, comparative linguistics.

### ОСОБЕННОСТИ АНТОНИМОВ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ИЛЛЮСТРАТИВНОГО СЛОВАРЯ «DEUTSCHE ANTONYME» В. М. ЗАВЬЯЛОВОЙ)

Аннотация

В статье рассматривается содержание, структура и научно-практическая значимость немецкого словаря антонимов „Deutsche Antonyme“, составленного В.М.Завьяловой. Несмотря на отсутствие теоретической классификации антонимов по семантическим или морфологическим признакам, словарь представляет собой ценный источник, благодаря алфавитному расположению и широкому использованию контекстуальных примеров. Каждый антонимический ряд сопровождается примерами из реальной речевой практики, что делает словарь полезным не только с лексикографической, но и со стилистической и психолингвистической точки зрения. В статье анализируется роль словаря в языкознании и его значение для сопоставительных исследований.

**Ключевые слова:** Антонимия, антоним, немецкий язык, лексическая система, контекст, стилистика, переводоведение, сопоставительное языкознание.

### NEMIS TILIDA ANTONIMLAR XUSUSIYATI (V.M. ZAVYALOVANING „DEUTSCHE ANTONYME“ ILLYUSTRATIV LUG'ATI MATERIALI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zavyalova V.M. tomonidan tuzilgan „Deutsche Antonyme“ nomli nemischa antonimlar lug'atining mazmuni, tuzilishi va ilmiy-amaliy ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi. Asarda antonimlar semantik yoki morfologik jihatdan nazariy tahlil qilinmagan bo'lsa-da, ularning alifbo tartibida keltirilishi va kontekstual misollar bilan boyitilishi lug'atni amaliy foydalanish uchun qulay va samarali manbaga aylantiradi. Muallif tomonidan har bir antonimik juftlik uchun real nutqiy vaziyatlardan olingan jumlar berilgani lug'atning stilistik va psixolingvistik jihatdan ham foydali ekanligi ushbu maqolada tahlil qilingdi. Maqolada ushbu lug'atning o'rnini, tilshunoslikda tutgan mavqei va qiyosiy tadqiqotlar uchun ahamiyatini tahlil qilishga maqolada keng o'rin berilgan.

**Kalit so'zlar:** Antonimiya, antonim, nemis tili, leksik tizim, kontekstual, stilistika, tarjimashunoslik, qiyosiy tadqiqot.

**Kirish.** Har qanday tabiiy til — bu faqat aloqa vositasi bo'libgina qolmay, balki inson tafakkuri, histuyg'ulari, ijtimoiy ong va madaniyatining ko'zgusi hisoblanadi. Tilda mavjud bo'lgan leksik birliklar insonning atrof-muhitni, hayotdagi hodisa va jarayonlarni qanday qabul qilishi va tasniflashini aks ettiradi. Ayniqsa, leksik-semantik munosabatlarning muhim turlaridan biri bo'lgan antonimiya tilning ichki tizimligi va kategoriyalash imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu nuqtai nazardan, antonimlar — ya'ni mazmunan bir-biriga zid, qarama-qarshi leksik birliklar — til tizimida nafaqat semantik muvozanatni saqlab turuvchi,

balki kognitiv va psixolingvistik jarayonlarda faol ishtirok etuvchi elementlardir. Ular orqali inson tafakkuridagi kontrast munosabatlar, qarama-qarshilikka asoslangan dunyoqarash va fikrlash jarayonlari ifodalanadi. Masalan, yaxshi va yomon, yorug' va qorong'u, issiq va sovuq kabi antonim juftliklari orqali inson dunyoni ikki qarama-qarshi qutb asosida anglaydi va izohlaydi. Bu esa antonimlarning nafaqat semantik, balki kognitiv-funksional ahamiyatini ham ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslikda antonimiya masalasi uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda. Biroq bu boradagi izlanishlar ko'pincha

umumiy nazariy yondashuvlar bilan chegaralanib qoladi va har bir tilning o'ziga xos semantik tizimidan kelib chiqilmagan hollarda yuzaki tasniflarga olib kelishi mumkin. Aynan shu nuqtada har bir tilga individual, ya'ni tizimli va madaniy kontekstni inobatga olgan holda yondashish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Nemis tilida antonimlarning tizimli va puxta nazariy asoslangan tahlili ilk bor Zavyalova V.M. tomonidan ilmiy ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, uning „Deutsche Antonyme“ nomli asari bugungi kunda ham nemis tilining leksik tizimini o'rganishda beqiyos manba hisoblanadi. V.M.Zavyalova asarida nafaqat antonimlar ro'yxati berilgan, balki ularning grammatik, semantik, stilistik va psixolingvistik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, antonimlarning morfologik shakllanishi, semantik mezonlarga ko'ra turlarga ajratilishi, uslubiy qo'llanish sohalari va kontekstda paydo bo'lish mexanizmlarini ochib berishi bu asarning amaliy va nazariy jihatdan yuksak baholanishiga asos yaratadi.

Shunday qilib, „Deutsche Antonyme“ asari nemis tilining leksik tizimini chuqur tushunish, antonimiyaning tabiati va funksiyalarini o'rganish, shuningdek, boshqa tillar bilan qiyosiy-lingvistik tadqiqotlar olib borishda asosiy tayanch manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada muallifning mazkur asari asosida nemis tilidagi antonimlarning morfologik, semantik, stilistik va psixolingvistik tahlili keltiriladi hamda kitobning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Zavyalova Valentina Mixaylovna — rus tilshunosi, Germaniya tilshunosligi bo'yicha mutaxassis, lug'atchilik va leksikologiya yo'nalishida faoliyat yuritgan olim. Uning asosiy ilmiy izlanishlari nemis tilidagi antonimiya hodisasiga, leksik tizimdagi qarama-qarshilik munosabatlarini aniqlash va tasniflashga bag'ishlangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** V.M.Zavyalova o'z faoliyatida til tizimida antonimlarning o'rni, ularning funksional xususiyatlari, kontekstual qo'llanishi va uslubiy yuklamalari bilan shug'ullangan. U o'z davridagi leksik tizimni tizimli yondashuv orqali tadqiq qilgan olimlari orasida tilshunoslik tarixida o'z izini qoldirgan.

V.M.Zavyalovaning „Deutsche Antonyme“ nomli asari 1999-yilda Rostov davlat universiteti tomonidan chop etilgan bo'lib, u 245 sahifadan iborat. Asarda jami taxminan 1831 ta antonimlar jamlangan. Muallif bu antonimlarni alifbo tartibidagi ketma-ketlikda keltirgan.

Mazkur lug'at o'zining asosiy vazifasi sifatida antonimlarni semantik qarama-qarshilik jihatidan tartibga solgan va ularning har biri uchun kontekstual misollar keltirilgan. Bu misollar — antonimlar qanday vaziyatda,

Misol tarzida ushbu qo'llanmada berilgan ba'zi antonimlar va ularga berilgan kontekstlarni ko'rib chiqamiz.

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| abschleppen - anschleppen                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Sudrab olib ketmoq – ko'tarib yoki sudrab olib kelmoq                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| Büttner erklärte, was in den kommenden Jahren auf dem Gelände entstehen würde, über das er vorsichtig fuhr, an provisorisch errichteten Baracken entlang, um Trümmerfelder und Sprenglöcher, um hohle Gebäude und Schornsteine, um Ruinen und um Gerüste, den Menschen ausweichend, die da abschleppten, anschleppten [2]. | Byuttner yaqin yillarda ushbu hududda nima bunyod etilishini tushuntirib berar edi. U ehtiyotkorlik bilan vaqtincha qurilgan baraklar orasidan o'tib ketdi. Bu joylar vayron qilingan va portlash chuqurlari, ichi bo'sh binolar hamda tutun chiqaruvchi quvurlar, xarobalar va iskala ustunlari edi. U yerda odamlar bo'lib, kimdir nimanidir sudrab olib ketar, kimdir esa tashib kelar edi va kimdir ulardan chetlab o'tar edi. |
| abwesend - anwesend                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Mavjud / qatnashayotgan – mavjud emas                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| Als Fabian um fünf Uhr die Promenade überschritt, fühlte er, daß Christa schon anwesend war. Einige Herren waren leider abwesend.                                                                                                                                                                                          | Fabian soat beshda xiyobonni kesib o'tayotganida, Krista allaqachon hozir shu yerda ekanini sezdi. Afsuski, ba'zi janoblari yo'q edilar.                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| die Niederlage – der Sieg                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Mag'lubiyat, yutqazish – g'alaba, zafar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| Ich wußte, daß mich heißeste Kämpfe erwarteten, und ich war fest entschlossen, sie um die große grundsätzliche Linie der kommunistischen Politik aufzunehmen und durchzufechten, mochten sie Sieg oder Niederlage bringen [3].                                                                                             | Men o'zimni eng qizg'in kurashlar kutayotganligini va ularni kommunistik siyosatning asosiy tamoyillari uchun boshlash va oxirigacha olib borishga qat'iy qaror qilgan edim — ular g'alaba olib keladimi yo mag'lubiyatmi, farqi yo'q edi.                                                                                                                                                                                         |

qanday uslubiy muhitda va qanday nutqiy kontekstda qo'llanilishini ko'rsatadi. Bu esa ushbu asarning nafaqat statik lug'aviy bazaga, balki dinamik, real til muhitidagi foydalanishga asoslangan bo'lishini anglatadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, V.M.Zavyalova lug'ati an'anaviy ilmiy tadqiqot shaklida yozilmagan, unda alohida nazariy boblar, terminologik tahlillar yoki semantik mezonlar asosidagi izohlar mavjud emas. Shunga qaramay, har bir antonim juftligi ostida berilgan kontekstual misollar so'zlarning funksional yukini, qo'llanish doirasini va uslubiy tavsifini anglashga yordam beradi. Bu esa asarni nafaqat lug'at, balki stilistik va semantik o'rganishlar uchun amaliy manba sifatida ham qadrlash imkonini beradi.

Ushbu lug'at tarjimonlar, nemis tili o'qituvchilari va tilshunos tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, qiyosiy tilshunoslik doirasida nemis va o'zbek tilidagi antonimlarni o'rganish jarayonida asosiy empirik material sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** V.M.Zavyalova ushbu lug'atda antonimlar borasida shunday deb yozadi: Tilning lug'aviy tarkibi — bu real dunyo predmetlari va hodisalarini hamda ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettiruvchi leksik birliklar tizimidir. Bu predmet va hodisalar o'rtasidagi munosabat turlaridan biri — bu qarama-qarshilik munosabatidir. Ma'nosi bilan qarama-qarshilikni ifodalovchi va shu asosda bog'langan so'zlar tilning lug'aviy tarkibida alohida qatlam yoki mikrosistemani tashkil qiladi [1].

Bu so'zlar tilshunoslikda antonimlar deb yuritiladi. Antonimiya hali yetarlicha o'rganilmagan masalalardan biri hisoblanadi. Bu yetarlicha o'rganilmaganlik holati ham nazariy, ham amaliy jihatdan namoyon bo'ladi. Jumladan, nemis tili bo'yicha tilshunoslik adabiyotlarida antonimlar bo'yicha maxsus lug'at mavjud emas. Masalan, ingliz tilida esa antonimlarga bag'ishlangan alohida lug'atlar mavjud [2].

Zavyalova V.M. tomonidan tuzilgan „Deutsche Antonyme“ asarida antonimlar morfologik yoki semantik mezonlar asosida nazariy tasniflarga ajratilmagan. Ya'ni, antonimlar gradual, komplementar yoki konversional kabi semantik toifalar bo'yicha turlarga bo'linmagan hamda ular morfologik jihatdan ham (masalan, o'zakdan-o'zakka, prefiksial shakllar asosida) alohida tasnif qilinmaydi. Biroq shu bilan birga, asarda har bir antonimik juftlik alifbo tartibida joylashtirilgan bo'lib, ularning real nutqiy kontekstda ishlatilishiga oid misollar bilan boyitilgan.

Bu metodologik yondashuv, ya'ni nazariy tahlildan ko'ra amaliy nutqiy namunalarni ustuvor qo'llash, mazkur lug'atni o'ziga xos manbaga aylantiradi. Ayniqsa, har bir antonim juftligi ostida keltirilgan kontekstual jumlar orqali o'quvchi ushbu so'zlarning qanday ma'noda, qanday uslubiy muhitda va qaysi til qatlamida qo'llanilishini bevosita kuzatishi mumkin. Bu jihat asarni nafaqat oddiy lug'at, balki stilistik tahlil va amaliy o'qituvchilik faoliyati uchun ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan foydali vositaga aylantiradi.

Garchi asarda nazariy bo'limlar mavjud bo'lmasa-da, kontekstual misollarning tizimli keltirilishi orqali antonimlarning tildagi funksional yuklamasi, sinonimik-antonimik bog'lanishlardagi roli va ma'no qarama-qarshiligining real ko'rinishlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. Shu sababli, „Deutsche Antonyme“ lug'ati lingvistik jihatdan mukammal tasnifga ega bo'lmagan bo'lsa-da, o'z mazmuni, hajmi va amaliy yo'nalishi bilan leksik tadqiqotlar, tarjimashunoslik ishlari va qiyosiy tahlillar uchun ishonchli materiallar manbai sifatida xizmat qila oladi.



V.M.Zavyalova asarida antonimlarning stilistik roli ham yoritilgan. Jumladan, u poetik matnlarda antonimlar vositasida kontrast yaratish, ritorik kuchaytirish, drammatik effekt hosil qilish kabilarni muhim uslubiy vosita sifatida ta'kidlaydi. Bu, ayniqsa, adabiyot, reklama, siyosiy nutqlar va publisistikada kuzatiladi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan, antonimlar inson tafakkurining asosiy tartiblovchi mexanizmlaridan biri sifatida ko'riladi. Inson o'z ongida biror tushunchani ko'pincha uning zididan kelib chiqib anglaydi. Masalan, „yaxshi“ tushunchasining mazmuni „yomon“ orqali mustahkamlanadi. V.M.Zavyalova bu borada til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatga urg'u beradi.

Kitob nafaqat nazariy tilshunoslikda, balki amaliy nemis tili darslarida, tarjimashunoslikda, stilistik tahlillarda

ham qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borishda, masalan o'zbek tilidagi antonimlar bilan solishtirishda, kitob asosiy manba vazifasini bajaradi.

Zavyalova V.M.ning „Deutsche Antonyme“ asari nemis tilshunosligi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan fundamental tadqiqot hisoblanadi. Unda nemis tilidagi antonimlarning nafaqat to'plami, balki ularning grammatik, semantik va stilistik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Bu asar orqali o'quvchi nafaqat antonimlarning lug'aviy shaklini, balki ularning funksional ahamiyatini, tildagi semantik muvozanatni ham anglaydi. Kitob qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik uchun ham katta manba bo'lib, o'zbek va boshqa tillardagi antonimlarning tahlilida tayanch vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Завьялова В.М. Deutsche Antonyme. Москва, Высшая школа, 1969
2. Уфимцева А.А. См. в частности, „О понятии лексики как системы“. Москва, 1962.
3. Fallows S.A. A complete dictionary of synonyms and antonyms. Chicago, Webster's Dictionary of Synonyms. Springfield, Massachusetts, USA, 1883–1902.